

## O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIGI; TARIXIY SABOQLAR VA BUGUNGI YUTUQLAR

**Murodov Asqar O‘tkirovich**

*Toshkent AmaliyFanlar Unversiteti*

*Toshkent shahri, chilanzor tumani, Gavhar ko‘chasi 1-uy.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishish jarayoni, tarixiy saboqlari va bugungi kunda qo‘lga kiritilgan yutuqlari tahlil qilinadi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy islohatlar haqida ma‘lumot beriladi. Maqola davomida xalqimizning ozodlikga intilishi, istiqlolning bebaho qadriyati va kelajak avlod zimmasidagi mas‘uliyat yoritiladi. Xulosa qismida esa mustaqillikning milliy qadriyatimizda tutgan o‘rni ta‘kidlanadi.*

**Kalit so‘zlar:** *Mustaqillik , istiqlol , tarixiy saboqlar , islohatlar , taraqqiyot , yutuqlar , O‘zbekiston.*

### **Kirish**

Xalqlar tarixida ozodlik va erkinlik uchun kurash eng buyuk maqsadlardan biridir. O‘zbekiston ham asrlar davomida ham mustqillikka intildi. Nihoyat, 1991 – yil 31 – Avgustda mustaqillik e‘lon qilinib , xalqimiz o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga ega bo‘ldi.

Mustaqillik – bu faqat siyosiy erkinlik emas, balki milliy tiklanish, taraqqiyot va yuksalishning poydevoridir. Shu bois mustaqillik saboqlarini o‘rganish va yutuqlarni qadirlash dolzarb vazifadir.

### **Asosiy qism**

#### **1. Mustaqillikka erishishning tarixiy saboqlari.**

O‘zbekiston xalqi uzoq tarix davomida ozodli uchun kurashib kelgan. Amir Temur davlatchiligi, Jadidlarning vatanparvarlik harakati, Ikkinchi Jahon urushidagi mardlik saboqlari xalqimizning mustaqillikka bo‘lgan intilishida muhim bosqich bo‘ldi. Sovet davrida milliy qadriyatlarining cheklanishi xalqimizni istiqlol orzusini ya’nada mustahkamladi. Shu tariqa mustaqillik tarixiy zaruriyat sifatida yuzaga chiqdi.

#### **2. Siyosiy va huquqiy asoslar yaratilishi.**

Mustaqillik yillarida eng avvalo yangi davlatning siyosiy - huquqiy asoslari yaratildi.

1992 – yil 8 – dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Bu hujjat xalqimizning demokratik qadriyatlari , huquq va erkinliklarini kafolatlovchi mustahkam poydevor bo‘ldi. Shuningdek , davlat ramzlari – bayroq , gerb va madhiyamiz qabul qilinib , milliy o‘zligimiz mustahkamlandi.

#### **3. Iqtisodiy islohatlar va taraqqiyot.**

Istiqlol yillarida O‘zbekiston iqtisodiyotini bozor tamoyillari asosida rivojlantirishyo‘lini tanladi.

Sanoat , qishloq xo‘jaligi , transport va energiteka sohalarida katta o‘zgarishlar amalga oshirildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab xalqaro hamkorlik rivojlanib , mamlakatimiz jahon iqtisodiyotining teng huquqli ishtirokchisiga aylandi.

#### 4. Ma‘naviyat va milliy tiklanish.

Mustaqillikning eng katta yutug‘i – milliy qadriyatlarning qayta tiklanishidir. Ajdodlarimiz merosi o‘rganildi , buyuk allomalarimizning nomlari tiklandi , ularning asarlari qayta nashr etildi. Mustaqillik tufayli xalqimiz o‘z dini , tili , urf – odatlarini erkin rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

#### 5. Bugungi kunda qo‘lga kiritilgan yutuqlar.

Bugun O‘zbekiston nafaqat mintaqada , balki xalqaro maydonda ham faol ishtirok etmoqda. Davlatimiz BMT , SHHT, OIS kabi nufuzli tashkilotlarning faol a‘zosi sifatida hamkorlik aloqalarini kengaytirmoqda. Yoshlar siyosati , ta‘lim va innovatsiya sohalarida qator yutuqlar qo‘lga kiritilmoqda. Bu esa mustaqillikning amaliy samaralaridan dalolatdir.

### **Xulosa**

O‘zbekiston mustaqilligi xalqimiz tarixidagi eng buyuk voqeylikdir. U bizga erkin hayot , milliy qadriyatlarimizni tiklash, taraqqiyot sari intilish imkonini berdi. Mustaqillik saboqlari shuni ko‘rsatadiki , ozodlikni saqlab qolish uchun uni qadrlash mustahkamlash va kelajak avlodga yetkazish eng muhim burchdir.

Demak , mustaqillik bizning kelajagimiz yutuqlarimiz va eng ulug‘ qadriyatimizdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlr ro‘yxati:**

1. Karimov I.A. O‘zbekistonning istiqlol va o‘z taraqqiyot yo‘li. – Toshkent; O‘zbekiston, 1992
2. Karimov I.A – Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch.- Toshkent; Ma‘naviyat, 2008
3. Abdurahmonov A. O‘zbekiston Mustaqilligi tarixi. – Toshkent; Unversitet. 2016
4. Xo‘jayev A. O‘zbekiston Tarixi. – [XXI-asr]. Toshkent; Fan, 2019
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. – Toshkent; 2021